

## PSIXIK RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI VA LOGOPEDIK KORREKSIYANING ASOSIY YO'NALISHLAR

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti*  
*Pedagogika va psixologiya fakulteti*  
*Maxsus pedagogika(logopediya) yo'nalishi*  
*511-21-guruh talabasi Davlatmurodova Nargiza*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar nutqiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularda olib boriladigan logopedik korreksiyaning asosiy usullari haqida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar, "Orqada qolish", tayyorlov davri, asosiy davr, nevropatiya, psixogen, idrok, tafakkur, xotira, diqqat, fonetik-fonematik nutq,*

Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarda emotsional-irodaviy soha yetuk emasligi bilan birga bilish faoliyati, jumladan diqqat, xotira, nutq yetarlicha rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bunday bolalarning bilish faolligi pasayishi atrofdan olgan bilimlar haqida bilimlar zahirasi cheklanganligi va yoshiga mos hamda maktab ta'limini boshlash uchun zarur amaliy ko'nikmalar yetarli emasligida namoyon bo'ladi. Umumiy somatik zaiflik va lokomotor funksiyalar sekin rivojlanishi bilan bir qatorda bolalar uchun harakat sohasi, umumiy motorika, kaft va barmoqlar motorikasi, artikulyatsiya motorikasi rivojlanishidagi ma'lum orqada qolish xosdir. Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarda orol praksis tadqiqi ularda harakatlarni dinamik tashkil etishga oid topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'l, kaft va barmoqlari motorikasi, ayniqsa nozik ixtiyoriy harakatlarni bajarishda buzilgan, bu yozuv ko'nikmalari shakllanishiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalarning shaxsiy rivojlanishda ortda qolishi o'ziga xosligini ko'p jihatdan ularning kommunikativ xulqi darajasi, kattalar bilan muloqat faoliyati shakllanganlik darajasi belgilaydi. Psixik rivojlanishi orqada qolgan katta yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligi uchun muloqatning vaziyatdan tashqari- bilish shakli harakterli bo'lib normal bolalarda u kichik yoshda (3-5 yoshda) shakllanadi. Psixik rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning qo'pol bo'lmagan nuqsoni tovushlar talaffuzi buzilishi, lug'at kambagalligi va yetarlicha farqlanmaganligi, leksikik-grammatik konstruksiyalarni o'zlashtirish kabi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi.

Psixik rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalarga korreksion-logopedik ta'limning vazifalari quyidagilar:

- umumiy va qo'l motorikasini rivojlantirish va takomillashtirish;
- artikulyatsion motorika (harakatlarni statik, dinamik tashkil etish, harakatlar ko'chishi, hajm, tonus, sur'at, aniqlik muvofiqlashtirish) rivojlantirish va takomillashtirish;
- eshitib idrok qilish, diqqatni rivojlantirish;

- ko‘rib idrok etish, хотirani rivojlantirish;
- ritmni rivojlantirish;
- tilning leksik va grammatik vositalarini takomillashtirish;
- bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Psixik rivojlanishidagi orqada qolishlar nutqiy nuqsonlar hisobiga murakkablashgan bolalar bilan logopedik ishlar quyidagi omillarni hisobga olib tashkil etiladi:

1. Nutqni korreksiyalash ishlari bilish jarayonlari (idrok, hotira, fikrlash)ni rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liqligi.

2. Logopedik ishning savod o‘rgatish, atrof olam bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, ritmika, musiqa o‘rgatish dasturi bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Psixik rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini korreksiyalash logoped, defektolog o‘qituvchi, tarbiyachi, musiqa rahbari hamkorligida olib boriladi.

3. Nutqni shakllantirishga tizimli yondashuv: logoped ishi istalgan boskichda nutqiy sistema ustida yaxlit (fonetik-fonematik, leksik, grammatik) olib boriladi.

4. Bilish va nutqiy faollikni oshirish, fikrlash operatsiyalarini rag‘batlantirish, mashg‘ulotlarga qiziqishni orttirish maqsadida ko‘rgazmalilikdan foydalanish.

5. Har bir mashg‘ulotga o‘yin mashqlarni kiritish (bolalarning emotsional va aqliy faolligini oshirish maqsadida).

6. Psixik rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy nuqsonlarni korreksiyalashda turli anolizatorlar (eshitish, ko‘rish, nutq-harakat, kinestetik) maksimal foydalanish; analizatorlararo aloqalar xusu-siyatlarini hisobga olish; psixik rivojlanishi orqada qolgan bolalar psixomotorikasi xususiyatlarini hisobga olish.

Xulosa qilib aytganda, psixik rivojlanishi orqada qolgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini korreksiyalash nafaqat nutqiy nuqson xarakteri bilan belgilanadi, balki bolalarning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. U bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish, psixik-jismoniy nuqsonlar korreksiyasi bilan bog‘lab olib borilishi kerak.